

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARGA MUSIQA O'QITISH METODLARI

Abdullayeva Dildoraxon Akmaljon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

“Ijtimoiy va amaliy fanlar” fakulteti

“Musiqqa ta’limi” yo’nalishi

2-bosqich 201-guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta’lim maktablarida musiqa ta’limining mazmuni, o’quvchilarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirishda qo’llaniladigan zamonaviy o’qitish metodlari va ularning samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, dars jarayonida milliy musiqiy merosdan foydalanish, o’quvchilarda estetik did, musiqiy tafakkur va ijodkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari ko’rsatib beriladi. Tadqiqot xulosalari musiqiy ta’limni takomillashtirish, interfaol yondashuvlar orqali o’quvchilarni musiqaga faol jalb etish bo’yicha amaliy tavsiyalarni o’z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: musiqa, san'at, axloqiy-estetik tarbiya, metodika, metod, mashg'ulot, dars.

МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ МУЗЫКЕ УЧАЩИХСЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация: В данной статье освещается содержание музыкального образования в общеобразовательных школах, современные методы обучения, применяемые для развития музыкальных способностей учащихся, а также их эффективность. Кроме того, показаны возможности использования национального музыкального наследия в учебном процессе, развития эстетического вкуса, музыкального мышления и творческих способностей учащихся. Выводы исследования включают практические рекомендации по совершенствованию музыкального образования и активному вовлечению учащихся в музыку посредством интерактивных подходов.

Ключевые слова: музыка, искусство, нравственно-эстетическое воспитание, методика, метод, занятие, урок.

TEACHING METHODS OF MUSIC EDUCATION FOR STUDENTS IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS

Annotation: This article highlights the content of music education in general education schools, the modern teaching methods used to develop students’ musical abilities, and their effectiveness. It also demonstrates the opportunities for utilizing national musical heritage during lessons, as well as developing students’ aesthetic taste,

musical thinking, and creativity. The research findings provide practical recommendations for improving music education and actively engaging students in music through interactive approaches.

Keywords: music, art, moral-aesthetic education, methodology, method, training, lesson.

KIRISH

Musiqiy tarbiya insonni go'zallikka yetaklovchi bir vosita bo'lib, u insonning estetik va emotsional xususiyatlarini shakllantiradi. Haqiqiy musiqa asarlari zamonning estetik-axloqiy va siyosiy g'oyalarini umumlashtiradi. Inson hayotini musiqa san'atisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. San'at kishilarga faqatgina manaviy ozuqa beribgina qolmasdan, jismoniy kamolotga erishuvida ham muhim o'rin o'ynaydi. Musiqa san'atining axloqiy-estetik tarbiyadagi ro'lini to'g'ri his etib, uning yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyatini aslo unutmaslik zarur. Musiqiy go'zallik insonning ma'naviy qiyofasi shakllanishida muhim omildir. ¹Yurtboshimizning qarorida "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. Mamlakatimizda bolalarni vatanparvarlik hamda milliy an'analarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, zamonaviy bilim va tajriba, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazish bilan bir qatorda ularni madaniyat va san'at sohasiga qamrab olish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga bolalarni madaniyat va san'atga keng jalb qilish, ular bilan tizimli ishlash, madaniyat va san'at muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish borasida qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati mavjud".²

"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" hamda "Ta'lim to'g'risidagi Qonun"ga tayanch sifatida maktabgacha ta'lim muassasalari uchun "Uchinchi ming yillik bolasi" dasturi 1991 yil M.Sh.Rasulova tomonidan ishlab chiqildi. 2000 yilda ushbu dastur qayta nashr qilindi va unda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar egallashlari kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablar, zamonaviy pedagogik jarayonni tashkil etishga qo'yiladigan talablar o'z aksini topgan. Maktabgacha bo'lgan davr psixologiyada ilk bolalik davri deb yuritiladi hamda bolalikning eng go'zal va esda qoladigan damlarini o'z ichiga oladi. Musiqa tarbiyasi bolalar bog'chasi va umumiy o'rta ta'lim maktablarida umumiy fanlar tarkibida o'qitiladi. Shuning uchun bu o'quv fanini o'qitish nazariyasi hamda metodikasini o'zlashtirish hozirgi kunda o'ta ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kun talabi maktabgacha ta'lim muassasalari oldiga musiqiy-estetik tarbiya berish borasida aniq vazifalarni qo'yadi:

¹ T. Ortiqov. "Musiqa o'qitish metodikasi" Toshkent-2010.

² <https://lex.uz/ru/docs/-7221711>

bolalarni tabiat go'zalliklarini, badiiy asarlarni idrok etish;
 estetik did va hissiyotni shakllantirish;
 hayotda go'zallik tushunchasini to'liqligicha anglashni o'rgatish;
 bolalarga badiiy ijodkorlikni shakllantirish;
 bolalarda go'zallikni o'z hayotlariga, o'z faoliyatlariga olib kirishni o'rgatish va hokazo.

Uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim muhim o'rin egallaydi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarining ahamiyati uzluksiz ta'limning oldingi bosqichi sifatida muhim rol o'ynamoqda. Shuning uchun har bir fanning alohida o'qitilish ahamiyati oshib bormoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi har bir fanning asosiy vazifasi bolalarni fikrlash va o'ylashga o'rgatishdir.³

METADALOGIYA

Musiqqa o'qitish metodikasi - bu pedagogikaning bir qismi hisoblanib, pedagogika fani sifatida tajribada sinalgan ishlarni nazariy qismlarini usul, uslub, vositalarini umumlashtirib, amaliyotda samarali natijalar bergan o'qitish metodlarini taqdim etadi. Ushbu metodlar o'quv tarbiyaviy jarayonning tuzilishini umumlashtirib, unga kiruvchi alohida va bir butun vazifalarni hal etish bilan shug'ullanadi. "Metod" yunon tilidan olingan bo'lib, "yo'l", "usul" degan ma'nolarni anglatadi. "Metodika" so'zi grekcha so'z bo'lib, "tadqiqot yo'li", "bilish usuli" degan ma'noni anglatadi va ta'lim-tarbiyaning alohida qismlari bo'lib hisoblanadi, ularning yig'indisi musiqa o'qitish metodlari deyiladi. Musiqaning o'qitish metodlari deganda, maktab bolalarining bilim, mahorat va malakalarini egallashda, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoqarashini tarkib toptirishda musiqa rahbarilarning qo'llagan ish usullari tushuniladi. Metodika asosan, pedagogika, psixologiya, estetika va san'atshunoslikning tadqiqot natijalariga asoslanadi. U musiqa o'qitishning qonun qoidalarini ta'riflab beradi, kelajak yosh avlodni tarbiyalashda qo'llanadigan zamonaviy metodlarni belgilaydi. Metodika, ta'lim-tarbiya jarayonida musiqa rahbarining bolalar bilan ishlash usullarining, mazmunini anglatadi. Musiqa o'qitish metodikasi musiqa rahbaridan iste'dod, qobiliyatlar va ishtiyoqlar mavjud bo'lishini talab etadi, chunki, san'at pedagogikasi mashaqqatli va juda mas'uliyatli sohadir. Musiqani o'qitish metodikasi, yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, musiqa mashg'ulotlarining tashkil etish usullari va yo'llarini o'rgatadi. Hozirgi kunda musiqa o'qitish metodikasi birdaniga kelib shakllangan fan emas, balki bunga qadar mazkur fanni shakllanishi ijodiy va murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Respublikamizda musiqa o'qitish metodikasini shakllantirishda mahalliy olimlar, metodistlar, tajribali musiqa rahbarilarning qator izlanishlari, o'quv qo'llanmalarining ahamiyati katta bo'ladi. Pedagogikaning metodika sohasidagi so'nggi yutuqlari talabalarni pedagogika

³. Soipova. "Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi" o'quv qo'llanma. Toshkent-2009.

faoliyatiga tayyorlash, ularni metodik bilim va mahoratlar bilan qurollantirish, musiqa o'qitish metodikasini bu maqsadga erishish uchun amaliy mashg'ulotlar mobaynida uzoq mehnat qilishni talab etadi. Ma'lumki, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning yosh fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ko'nikma va malakalariga muvofiq musiqa o'qitish metodikasi qo'llaniladi. Bu yerda ta'lim usuli, o'quv materiallarining (o'quv reja, dastur, darslik) ta'lim prinsiplari, o'quv-tarbiyaviy ishlarning umumiy maqsad va vazifalari eng muhim ahamiyatga egadir. Demak, musiqa o'qitish metodikasi talabalarning musiqa san'atiga o'rgatishning mazmuni, vazifalari, metodlarini o'rgatuvchi va o'quv jarayonlarini tashkil etuvchi shakl va yo'llarini tadbiq etuvchi fandır. Musiga o'qitish metodikasi vazifalarini amalga oshirishda, musiqa o'qitishning qator metodlari bilan birgalikda, pedagogikaning amaliy yo'nalishini unumli metodlar egallab, musiqa mashg'ulotlarida qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Musiga o'qitish metodikasi vazifalarini amalga oshirishda, musiqa mashg'ulotlarida o'qitishning unumli metodlaridan unumli foydalanishga bog'liq. Yetuk olimlarimizning tadqiqotlarida maktab musiqa o'qituvchisining shaxsiyati va unga bo'lgan kasbiy talablar va bolalar munosabatini, xususiyl metodlardan foydalanish jarayonida hal qilish lozimligini ilmiy asisda ta'riflab berganlar. Unumli metod - biror bir fanning amaliy va ijodiy ishlari mazmunini va mavzusini keng yoritib berish va mustahkamlashda, musiqa rahbari va bola faoliyatida o'zaro aloqadorligini va bolalarni bilish jarayonida izlanishga undovchi metoddır. Unumli metodlar o'qitish faoliyati va maqsadiga qarab to'rtga bo'linadi:

1. Mashg'ulot (dars)larning musiqiy umumlashtiruvchi metodi.
2. O'tilajak mashg'ulot(darslar)ga oldindan "yugurib", bog'lab o'tish va ilgari o'tilganlarga qaytish metodi.
3. Mashg'ulot (dars)lar mazmunining emotsional dramaturgiyasi metodi.
4. Mashg'ulot (dars)larning pedagogik jihatdan kuzatilishi va bilimlarning baholanishi metodi.⁴

ADABIYOTLAR TAHLILI

Musiqiy bilimlarni o'zlashtirish deganda biz musiqaga oid bo'lgan barcha bilimlarni o'zlashtirishni tushunamiz. Xususan:

1. Musiga savodi (musiga nazariyasining boshlang ich bilimlari);
2. Musiga tinglash va tahlil qilish;
3. Jamoa bolib go'shiq kuylash;
4. Musiqiy jodkorlik (musiqaga mos harakatlar qilish, bolalar cholg'u cholg'ularida chalib, musigaga ritmik jor bolish).

Musiga darsining asosiy xususiyati shundaki, musiqa ta'limining to'rt faoliyati mustaqil jarayon bo'lishi bilan birga, ular bir-biri bilan uzviy

⁴ . Soipova. "Musiga o'qitish nazariyasi va metodikasi" o'quv qo'llanma. Toshkent-2009.

aloqada, o'zaro bog'liq ravishda olib borish kerak. Ushbu jarayonlarni

o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi, ulari ijodiy shaxs bo'lib yetishishlariga zamin yaratadi. Darsning mohiyati, mazmuni va mavzusidan kelib chiqqan holda darsdagi biror bir faoliyat birinchi o'ringa chiqib qolishi mumkin. Musiqa darsining tuzilishi asosan, musiqiy ijrochilikni tashkil etadi, lekin shuni unutmaslik kerakki, birgina ashula aytish uchun nota yozuvi, dinamikasi, shtrixlarini bilish zarurdir. Jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchilarda jamoatchilik, do'stlik, birdamlik kabi fazilatlar shakllanadi. Bu jarayonda butun sinf jamoa bo'lib, "bir yoqadan bosh chiqarib" faol ishtirok etadilar. Shu tufayli musiqiy qobiliyati sust bo'lgan o'quvchilar faol va yaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo'lgan o'quvchilarga ergashadilar. Musiqiy qobiliyat faqatgina musiqiy amaliyot, musiqa san'atiga xos bolgan musiqiy material va maxsus usullar orqaligina rivoltantirilishi mumkin, ya'ni aynan musiga insonning musiqiy hislarini uyg'otadi.⁵

NATIJALAR

Kuzatishlarimizga ko'ra, birinchi sinf o'quvchilarining bilim darajalari bir tekis bo'lmaydi. Ayrim bolalar bemalol musiqani boshidan oxirigacha tinglay oladilar, qo'shiqlarni sof intonatsiyada kuylaydilar, ayrim bolalar esa aksincha tinglash va to'g'ri kuylash haqida tasavvurga ham ega bo'lmaydilar. Ayrim bolalar maktabga kelgunlariga qadar, musiqa to'garaklariga qatnashgan va maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy tarbiya olgan bo'ladilar. Ayrim bolalar musiqiy muhitda tarbiyalangan bo'lsalar, ba'zilar umuman musiqadan bexabar bo'ladilar. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bolsak, birinchi sinf o'quvchilari har xil xususiyatlarga ega bo'ladilar. Shunga qaramay, biz ularning ayrim umumiy qiyofalarini sanab o'tamiz:

1. Musigani idrok etish borasida ular qo'shiq, marsh va raqs janrlarini idrok eta oladilar. Birinchi sinf o'quvchilari tinglaydigan kuy va qo'shiqlar hajmi jihatidan kichik va yorqin bo'lmog'i hamda tinglashdan avval o'qituvchi uning ifodaviyligi, musiqiy obrazlari, ma'no va mazmuni haqida tushunchalar berishi kerak.

2. Kuylash borasida, birinchi sinf o'quvchilari avvalgi (maktabgacha bo'lgan daviga) musiqiy tayyorgarliklariga bog'liq. Tayyorgarligi bo'lmagan bolalarning ovoz diapazoni 2-3 tovushdan, tayyorgarligi bor bolalarda bir oktavagacha ovoz diapazoni rivojlangan bolishi mumkin. O'qituvchi kuylash jarayonida bolalarning ovoz apparati to'liq shakllanmagan, nozik, ovoz paychalari ingichka bo'ladi. Shuning uchun kuylashda baqirmasdan yumshoq ovozda kuylash kerak. Bu davrida bolalarning (7 yoshli) ovoz diapazoni re-lya birinchi oktavagacha bo'lgan tovushlarni qamrab boradi. Lekin dars jarayonida bu diapazon ayrim hollarda birinchi oktavaning si va ikkinchi oktavaning do va re tovushlarigacha ko'tarilishi mumkin. Biroq

⁵ G. Sharipova, Z. Xodjayeva. "Musiqa o'qitish metodikasi" darslik. Toshkent "NIF MSH" 2020.

o'quvchilar birinchi oktava do tovushi va undan quyiyoq tovushlarni kuylay olmaydilar. Chunki uining ovozlari tabiatdan jarangdor va yorqindir.

3. Ijodiy yondashish borasida birinchi sinf o'quvchilarining imkoniyatlari kengdir. Ular bemalol har xil ijodiy topshiriqlarni bajara oladilar. Ular biror so'zga melodik va ritmik badihalar qilishlari mumkin. Ular musiqiy cholg'u asboblari yoki sahnaviy ko'rinishlarda, tanish bo'lgan qo'shiqlarni harakatlar va pantomimalar bilan ko'rsatib bera oladilar.⁶

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, umumta'lim maktablarida musiqani o'qitish jarayoni o'quvchilarning estetik didini shakllantirish, badiiy tafakkurini rivojlantirish va ularni milliy hamda jahon musiqiy merosi bilan tanishtirishning eng muhim vositalaridan biridir. O'qituvchi tomonidan to'g'ri tanlangan metodlar darsning mazmunini boyitib, o'quvchilarda musiqiy idrok, ritmni his etish, emotsional kechinmalarni ifodalash, mustaqil fikrlash va ijodkorlik kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. Shuningdek, darslarda milliy kuy-qo'shiqlar, zamonaviy musiqiy namunalar va amaliy faoliyatni uyg'unlashtirish o'quvchilarni musiqaga yanada faol jalb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G. Sharipova, Z. Xodjayeva. "Musika o'qitish metodikasi" darslik. Toshkent "NIF MSH" 2020.
2. D. Soipova. "Musika o'qitish nazariyasi va metodikasi" o'quv qo'llanma. Toshkent-2009.
3. T. Ortiqov. "Musika o'qitish metodikasi" Toshkent-2010.
4. <https://lex.uz/ru/docs/-7221711>
5. Nurmatov, S. O'rta maktablarda musika ta'limi. Toshkent: Ta'lim, 2015-yil.

⁶ D. Soipova. "Musika o'qitish nazariyasi va metodikasi" o'quv qo'llanma. Toshkent-2009.